



**OILA IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA**

**Xolmurodov G'ulom**

*O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi*

**Ismatova Husnora**

*O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy institut tushunchasi, uning asosiy xususiyatlari va turlari, oila ijtimoiy institutining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy institutlar, ijtimoiylashtirish, ijtimoiy shartnoma, siyosiy institutlar, oila institute, nikoh, oila.

Ijtimoiy institutlar - bu aniq ahamiyatga ega ijtimoiy vazifani bajaruvchi, o'zining a'zolarini bajargan ijtimoiy rollari asosida birgalikda ijtimoiy qadriyatlar, me'yoriy va yurish-turish namunalari, vazifalarini bajarish yo'lidagi maqsadni birgalikda amalga oshirishni ta'minlovchi odamlarning tashkiliy birlashmasidir.

Har bir institut o'ziga xos ijtimoiy vazifani bajaradi.

S.Lipset va D.Landberg ijtimoiy institutning to'rtta asosiy vazifalarini belgilashdi[1].

1. Jamiat a'zolarini yetishtirish. Bu vazifani bajaruvchi asosiy institut oiladir. Ammo bunga boshqa institutlar ham daxldor, masalan: davlat;

2. Ijtimoiylashtirish - odamlarga mazkur jamiatda o'rnatilgan yurish-turish namunalari va faoliyat usullarini taqdim qilish (oila, ta'lif, diniy usullar orqali).

3. Ishlab chiqarishga va taqsimlash ijtimoiy-iqtisodiy va nazorat institutlari orqali ta'minlashadi;

4. Boshqarish va nazorat ishlari tartib-intizomining taalluqli turlarini amalga oshiruvchi ijtimoiy me'yor va ko'rsatmalar: axloqiy va huquqiy me'yorlar, udumlar, ma'muriy qarorlar orqali amalga oshirildi.

Ijtimoiy institutlar shaxslarining yurish-turishini rag'batlantirish yoki tanbex yo'li bilan boshqaradi. Ijtimoiy institutlar bir-biridan o'zlarining faoliyati sifati bilan farq qiladi:

1. Iqtisodiy-ijtimoiy institutlar - mulkchilik, almashtirish, pul banklar, turli xil xo'jalik birlashmalari, ishlab chiqarishning to'la majmuyini va jamiat boyligining taqsimlashi ta'minlaydi. Ayni paytda ijtimoiy hayotning boshqa muhitini iqtisodiy hayoti bilan birlashtiradi.

2. Siyosiy institutlar - davlat, partiya, kasaba uyushmalari va boshqa jamoa tashkilotlari siyosiy hukumronlikni aniq shakllarini qo'llab-quvvatlovchi va shu hukumronlikni o'rnatuvchi siyosiy maqsadni ko'zlaydilar. Ularning barchasi mazkur jamiatning siyosiy tuzimini tashkil qiladi.

3. Ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy institutlar o'z oldiga madaniy hamda ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish va rivojlantirish, shaxsni aniq bir madaniyatga jalb qilishni, shuningdek, ijtimoiy-madaniy intizom standartini o'zlashtirish va nihoyat aniq bir qadriyat va me'yorlarini himoyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.



4. Me'yoriy mo'ljal mexanizmlarni axloq, etikani o'zlashtirish va shaxs intizomini tartibga solish. Ularning maqsadi intizom va yurish-turishga axloqiy dastak, estetik asos berish. Bu institutlar hamkorlikda umuminsoniy qadriyatlar, intizomning maxsus kodeksi va etikasini tasdiqlaydilar.

5. Me'yoriy sanksiyalovchi-huquqiy va ma'muriy aqidalarda belgilangan me'yor, qoidalar va ko'rsatmalar asosida umumijtimoiy intizomni tartibga solish. Me'yorning majburiyligi davlat va taalluqli sanksiyalar tizimining majbur qiluvchi kuchi orqali ta'minlanadi.

6. Marosim-timsol va vaziyat konvension institutlar. Bu institutlar (shartnoma asosida) qisqacha yoki uzoq vaqtga konvensiya me'yorlarini qabul qilishga asoslangan. Bu me'yorlar kundalik to'qnashuvlarini, turli-tuman guruhlar yoki guruhlararo intizomni tartibga soladi. Ular tartib-intizomning tartibini aniqlaydilar, axborot almashish usullarini vaqt soatini belgilaydi. Salomlashish, murojaat qilish, masjislarni, yig'ilishlarini qandaydir birlashmalar faoliyatini soatini ham belgilaydi.

O'zaro me'yoriy hamkorlik (ijtimoiy muhit bilan) ijtimoiy institut disfunksiyasi deyiladi. Avval aytib o'tganimizdek, ijtimoiy institutning aniq harakat qilish va vakillashtirish asosi u yoki bu ijtimoiy talabalarni qondirishdir. Ijtimoiy jarayonlarning jadal oqimi, ijtimoiy o'zgarishlar tempining tezlashishi sharoitida jamiyat talablari o'ziga xos ijtimoiy institutning faoliyati va tarkibida o'z aksini topa olmasligi ham mumkin. Ularning faoliyatlaridan disfunksiyalar paydo bo'lishi mumkin. Disfunksiyalar maqsadining aniq emasligi, uning ijtimoiy nufuzini va obro'i tushganda alohida faoliyatini "Timsoliy" faoliyatini paydo bo'lishi ya'ni faoliyatining samarali maqsadga erishishiga qaratilmaganligida ifodalananadi.

Jamiyat talabi qondirilmaganligi natijasida hayotiy me'yoriy tartibga solinmagan, institut disfunksiyaning to'ldirishga intilgan, shu maqsadda joriy me'yor va qoidalarini buzilishlar ro'y beradi. Bu xil faolliklar huquqqa qarash faoliyatlarda ifodalashi mumkin. Ayrim iqtisodiy institutlarning disfunksiyasi "төнөвәй әканомика" ya'ni chayqovchilik, poraxo'rlik, o'g'rilik va hokazolarga sabab bo'ladi.

Oila ijtimoiy institut sifatida, aniq vazifani bajarayotgan odamlardan tashkil topgan birlashmadir. Ular birgalikda va maqsadini ko'zlaydilar, shu maqsad yo'lida har bir odam o'zining ijtimioiy vazifasini bajaradi. Bu saviyada boshqaruvchi tuzim mustaqil tuzim sifatida ajralmagan bo'ladi[2].

A.G.Xarchyov oila institut bu - nikoh va qondoshlikga asoslangan umumi yashash, o'zaro javobgarlik bilan bog'langan odamlar birlashmasi deb ta'riflaydi[3].

Oila ijtimoiy institutning o'ziga xos xususiyatlari quydagilar: jinsiy va fiziologik ehtiyojlarnig mavjudligi, birgalikda yashash, boshqa odamlar bilan muloqot, jamiyatda farzandlarni shaxs sifatida tan olinishi, o'z-o'zini anglash va boshqalardir.

Oilaviy munosabatlar eng avvalo nikohdan boshlanadi. Nikoh - ayol va erkak munosabatlarini tarixiy o'zgaruvchan ijtimoiy shaklidir, bu munosabatlar orqali jamiyat ularning jinsiy hayotining tartibi va huquqlarini belgilaydi. Ularning qondoshlik va er-xotinlik huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ammo oila nikohga nisbatan ancha murakkab munosabatlar tizimini belgilaydi. Chunki u nafaqat er-xotinning balki bolalar va



boshqa qarindoshlarni birlashtiradi. Shuning uchun oilaga faqat nikohda birlashgan guruh sifatida emas, ijtimoiy institutlar sifatida, ya’ni inson avlodini davom ettiruvchi o’zaro hamkorlik va munosabatlarning aniq qadriyatlar va me’yorlar asosida faoliyat ko’rsatuvchi shaxslarning aloqaviy tizimi sifatida qarash joizdir. Bu institut keng ko’lamda ijtimoiy nazorat ostiga olingan.

Oila - ijtimoiy institut sifatida bir qator bosqichlardan o’tadi. Bu bosqichlarning ketma-ketligi oilaviy jarayon yoki oilaning hayot tarzini tashkil qiladi. Xususan:

- A) birinchi nikohdan o’tish-oilani tashkil bo’lishi.
- B) bolalanishning boshlanishi - birinchi bolaning tug‘ilishi.
- V) bolalanish nihoyasi - kenja bola tug‘ilishi.
- G) “bo’shagan uya” oxirgi farzandning nikohi va uning oiladan bo‘linishi.
- D) oilaning tugatilishi-er-xotinlardan birini o’limidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Introduction to Sociology.

2. G‘ulom, X., & Qizi, S. G. A. (2022). OILA TUSHUNCHASI VA OILADAGI IJTIMOIY MUNOSABATLAR TIZIMI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(2), 135-140.

3. Антонов А.И. Социология семьи. Учебник. – Москва: INFRA-M, 2012.